

## **Maqsadli uchrashuv**

Institut rektorining 2018 yil 30 martdagi «TIQXMMI tasarrufidagi akademik litsey bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish va institut faoliyati bilan yaqindan tanishtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi»ga asosan 2018 yil 12 may kuni soat 13:00da 8-ma'ruzalar zalida, «Gidrotexnika qurilishi» fakulteti va mutaxassis chiqaruvchi «Gidrotexnika inshootlari va muhandislik konstruksiyalari» hamda «Suv energiyasi va nasos stansiyalaridan foydalanish» kafedralari rahbarlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuv davomida akademik litseylar bitiruvchilariga fakultetda tayyorlanayotgan kadrlar va ular faoliyat yuritadigan ishlab-chiqarish tashkilotlar to'g'risida bat afsil ma'lumotlar berildi.

